

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA MOYBO'YOQDA ISHLANGAN
ASARLARNI TAXLIL QILISH ORQALI O'QUVCHILARDA NAFOSAT
TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH.**

Xojibekova Sadoqatbonu Zafarjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi

"Tasviriy san'at" yo'nalishi magistranti 1-bosqich talabasi

sadoqatoyzafarovna@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonida moybo'yoq texnikasida ishlash, moybo'yoqda ishlangan badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchilarda estetik didni rivojlantirish, san'at asarlarini anglash ko'nikmalarini shakllantirish va nafosat tarbiyasini yuksaltirish nazariy hamda amaliy bilimlarini rivojlantirish jihatlari tahlil qilinadi. Moybo'yoq texnikasining badiiy imkoniyatlari o'quvchilarda idrok, tasavvur, emotsional sezgirlik va go'zallikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi ilmiy asoslanadi. Shuningdek, san'at asarlarini tahlil qilish metodikasi, dars jarayonlarida qo'llaniladigan samarali pedagogik yondashuvlar misollar bilan yoritiladi.

Kalit so'zlar: moybo'yoq, tasviriy san'at, estetik tarbiya, nafosat, tahlil, badiiy tafakkur, kompozitsiya, rang tasvir.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты развития эстетического вкуса учащихся, формирования навыков понимания художественных произведений и воспитания чувства прекрасного через изучение техники масляной живописи и анализ художественных работ, выполненных маслом на уроках изобразительного искусства. Обоснованы художественные возможности техники масляной живописи, а также развитие у учащихся восприятия, воображения, эмоциональной чувствительности и способности ощущать красоту.

Кроме того, освещаются методики анализа художественных произведений и эффективные педагогические подходы, применяемые в учебном процессе.

Ключевые слова: масляная живопись, изобразительное искусство, эстетическое воспитание, чувство прекрасного, анализ, художественное мышление, композиция, живопись.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing students' aesthetic taste, forming their ability to understand works of art, and enhancing their sense of beauty through teaching oil painting techniques and analyzing oil-painted artworks in fine arts classes. The artistic possibilities of oil painting techniques, as well as the development of students' perception, imagination, emotional sensitivity, and ability to

appreciate beauty, are scientifically substantiated. In addition, the article highlights methods for analyzing works of art and effective pedagogical approaches used in the teaching process.

Keywords: *oil painting, fine arts, aesthetic education, sense of beauty, analysis, artistic thinking, composition, painting.*

Bugungi zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning estetik did va tafakkurini, badiiy idrokini shakllantirish-shaxs kamolotining muhim omillaridan biridir. Tasviriy san’at darslari esa ushbu jarayonning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi. Ayniqsa moybo‘yoqda ishlangan badiiy asarlar o‘zining rang boyligi, san’at asarlari mazmunining chuqur ifodalanishi, kompozitsion yechimlarning xilma-xilligi bilan estetik tarbiyada katta ahamiyatga ega.

Estetik tarbiya – o‘quvchilarning go‘zlikni anglash, uni his qilish, qadrlash va kelajak hayotta go‘zlik me‘zonlariga amal qilish sifatlarini rivojlantiradi. San’at asarlarini tahlil qilish esa ushbu jarayonning eng samarali vositalaridan biridir.

Moybo‘yoq - tabiiy yoki sun’iy pigmentlar bilan zig‘ir moyi, yong‘oq moyi yoki boshqa o‘simlik moylari aralashtirilgan, sekin quriyadigan, ammo juda mustahkam bo‘yoq turi. Moybo‘yoq tasviriy san’atning eng qadimiy va eng ko‘p imkoniyatlarga ega yo‘nalishlardan biridir. Moybo‘yoqning estetik ahamiyati ranglarning chuqur, yorqin va tabiiy ifodalanishi, faktura, yorug‘ - soya, koloritning boyligi, psixologik holatni yetkazish imkoniyati hamda mavzu va g‘oyaning ta’sirchan tarzda ochilishi bilan ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois o‘quvchilar moybo‘yoq asarlarini tahlil qilganda nafaqat rang va shaklni ko‘radi balki asar orqasidagi ruhiy holatni, g‘oyani, kayfiyatni, asar muallifining ichki kechinmalarini his qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Moybo‘yoqda ishlangan asarlarni tahlil qilishning pedagogik ahamiyati shundan iboratki, asarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarda kuzatuvchanlik -ranglar uyg‘unligi, kompozitsiyaning elementlariga e’tibor bilan qarash, tahliliy fikrlash - asarning g‘oyasini anglash, muallif o‘z asarida nimani tasvirlashga harakat qilganligi va qanday natijaga erishganligi, emotsional sezgirlik-badiiy kayfiyatni his qilish, baxolash-badiiy mezonlarga asoslanib o‘z fikrini bildirish olish, ijodkorlik-o‘quvchi o‘z asarlarida ham badiiy qonuniyatlarga amal qilishni o‘rganadilar. Bu jarayonlar o‘quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishga o‘rgatadi, chunki ular san’at orqali go‘zlik me‘zonlarini o‘zlashtiradi.

San’at asarlarini tahlil qilish metodikasi shundan iboratki moybo‘yoqda ishlangan asarlarni tahlil qilish dars jarayonida quyidagilardan foydalaniladi;

Kuzatish. Bu bosqichda o'quvchi avvalo asarga umumiy nazar solidi. Pedagog o'quvchilarga turli hilsavollar beradi, masalan; Asarda birinchi nimani ko'rdingiz? Asarning umumiy kayfiyati qanday? Ranglar qanday uslubda tanlangan?

Tarkibiy tahlil. Bu bosqichda kompozitsiya, ranglar, yorug' - soya, faktura, plastika, detallar o'rganiladi. Kompozitsiya markazi qayerda? Ranglar uyg'unligi qanday tartibda? Kompozitsiyaning yorug'lik manbai qayerda joylashgan? Mazmuniy tahlil

. Asarning g'oyasi, mazmuni, muallifning fikri, obrazlar tartibi taxlil qilinadi. Asarda qanday voqea va hodisa tasvirlangan? Obrazlar orqali rassom nimani anglatmoqchi? Rassom qanday hissiy kayfiyatni yetkazmoqchi bo'lgan?

Estetik baholash. O'quvchilar o'z fikrini bildirishni o'rganadilar. Sizda asar qanday ta'surot qoldirdi? Nega aynan shu asarga yuksak baho berdingiz? Asar sizdagi qanday tuyg'ularni uyg'otdi? Bu bosqich nafosat tarbiyasining asosiy qismi hisoblanadi, chunki o'quvchilar go'zallikni sezish, his qilish va to'g'ri baholashni o'rganadilar. Nafosat tarbiyasini shakllantirish mexanizmlari orqali moybo'yoq asarlarini tahlil qilish o'quvchilarda quyidagi estetik sifatlarni egallashga yordam beradi.

Go'zallikni anglash. Ranglar uyg'unligi, manzaraning go'zalligi, obrazlarning badiiy yechimini ko'rish orqali o'quvchilar tabiat va san'atdagi go'zallikni his qiladilar. Estetik did. Badiiy mezonlarni anglash asosida tanqidiy fikrlash, asarlarni solishtirish va baholash o'quvchilar didini shakllantiradi. Emotsional madaniyat. Asarlarni tahlil jarayonida o'quvchilar emotsiyalarni boshqarish, san'at orqali his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar. Badiiy tafakkur. San'at asarlaridagi g'oya, ma'no, timsollarni tushunish orqali tafakkuri kengayadi.

Amaliy mashg'ulotlar orqali natijadorlikni oshirish uchun moybo'yoq asarlarini tahlil qilish bilan birgalikda quyidagi faoliyatlar o'quvchilarda estetik tarbiyani kuchaytiradi - galereya va muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, mashhur rassomlar ijodini o'rganish, o'quvchilarning o'z ijodiy ishlarini solishtirish, guruh bo'lib tahlil qilish va munozaralar olib boorish, rang tasvir mashg'ulotlarida o'rganilgan qonuniyatlarni amalda qo'llash. Bu faoliyatlar o'quvchilarni san'at olamiga chuqurroq jalb qiladi.

Moybo'yoq asarlarining psixologik yondoshuvi va ta'siri. Moybo'yoq texnikasida yaratilgan asarlar inson psixologiyasiga kuchli ta'sir qilish xususiyatiga ega. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra ranglarning chuqurligi o'quvchilarda hissiy xotirani faollashtiradi, ranglar uyg'unligi orqali o'quvchilar kayfiyatining barqarorlashuvi kuzatiladi, manzara va figurativ tasvirlar tasavvur kuchini oshiradi, ranglarning iliq va sovuq tonlari o'quvchilarning emotsional reaksiyalarini boshqarishda yordam beradi. Tasviriy san'at darslarda asarni tahlil qilish faqat bilim emas, balki hissiy tarbiya vazifasini ham bajaradi.

Estetik tarbiya va tasviriy san'at pedagogikasi bir biriga o'zaro bog'liq bo'lib idrok etish, tahlil qilish, baholash, ijod zanjiri bir biriga uzviy bog'liq. Bu modelga ko'ra o'quvchilar avval san'at asarlarini idrok qiladi, so'ng tahlil qiladi, baholaydi va yakunida shu bilimlaridan kelib chiqib ijod qila boshlaydilar.

Estetik ehtiyojni shakllantirish orqali o'quvchilar san'at asarlarini qancha ko'p kuzatsa, ular bilan ishlasa, asardagi go'zallikka ehtiyoj shakllanadi. Bu esa nafosat tarbiyasining eng yuqori bosqichlaridan biridir. Mashhur rassomlarning asarlarini o'rganish orqali o'quvchilar o'z estetikasini shakllantiradilar. Masalan; O'rol Tansiqboyevning rang tasvir asarlari, Chingiz Ahmarovning monumental rang tasvir asarlari, Lutfulla Abdullayevning obrazli talqinlari o'quvchilar didini rivojlantirishda o'z ahamiyatiga ega.

Moybo'yoq asarlarini tahlil qilishda zamonaviy metodlar foydali hisoblanadi bulardan STEAM yondashuvini misol qilib olsak bo'ladi. San'at (Art) fanining texnologiya, muhandislik va matematika bilan bog'lab tahlil qilish o'quvchilarda mulohaza yuritish faoliyatini o'stiradi. Misol: ranglar uyg'unligi – fizika (yorug'lik tarqalishi) bilan bog'liq, kompozitsiya asarlarning markazi – matematika (nisbatlar, “oltin kesim”) bilan bog'liq, asarlarning texnologik tahlili – texnologiya bilan bog'liq.

Ko'rgazmali (vizual) tadqiqot metodi. O'quvchilar asarlarni kuzatadilar, detallarni topadi va ular asosida g'oyalarni mustaqil idrok etadi. Interaktiv tahlil qilish jarayonida rassom haqida video, animatsiya, 3D galereya, virtual muzeylardan foydalanish yuqori motivatsiya beradi. O'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra tahlil jarayonini tashkil etish Boshlang'ich sinflar (1-4-sinflar) uchun; Ko'proq ranglar, shakllar, asarlarni oddiy va soddaligiga e'tibor beriladi. Savollar: “Bu rasmda nimalarni ko'ryapsizlar? “Qaysi ranglar ko'proq ishlatilgan? O'rta bosqich (5–7-sinflar) uchun; Kompozitsiya, natyurmort, yorug' - soya, issiq va sovuq ranglar haqida tushunchalar beriladi. Savollar: “Rasmdagi asosiy markaz qayerda joylashgan? “Ko'proq qanday ranglardan foydalanilgan?” Katta yoshdagi o'quvchilar (8–11-sinflar) uchun; Estetik tahlil chuqurlashtiriladi, rassomlarning uslubi, badiiy maktablar o'rganiladi. Savollar: “Asarning g'oyasi nima haqida?”, “Rassom nega aynan shu uslubni tanlagan?”

Moybo'yoqda ishlangan asarlar misolida o'quvchilarni nafosatga yo'naltirish Quyidagi o'zbek rassomlari asarlari bilan tanishish ayniqsa nafosat tarbiyasida juda samarali: O'rol Tansiqboyev –ranglar koloritining boyligi orqali tabiat go'zalligini his ettiradi. Raxim Ahmedov – milliy obrazlar, inson ma'naviyati va go'zalligini yorqin aks ettiradi. Chingiz Ahmarov – murakkab kompozitsiyalar va monumental rang tasvir asarlari. Lutfulla Abdullayev – harakat va ekspressiya orqali dinamikani yaqqol tasvirlab bergan. Bu asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchalarda: hushyorlik, idrok, milliy san'atni qadrlash, badiiy

dunyoqarashni boyitish, axloqiy-ruhiy poklik kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Asarlarni tahlil qilishda beriladigan savol andozalari, bu savollar o‘qituvchiga dars jarayonida juda qo‘l keladi: Asarda nimalarni ko‘ryapsiz? Asarda qaysi ranglar ustun? Asardagi soya-yorug‘ qonuniyatlari qanday taqsimlan? Asarda nima tasvirlangan? Undagi obrazlar qanday ma‘noni beradi? Rassomning hayotiy tajribasi bu asarga qanday ta’sir qilgan? Sizlarga asarning nimasi yoqdi va nega? Bu asar sizda qanday hissiyot uyg‘otadi? Asardagi go‘zallik qanday aks ettirilgan?

Dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtiruvchi texnikalar quyidagilardan iborat; “Ranglarni his qilish” mashqi: asarga qarab ranglar orqali kayfiyatni aniqlash. “San’at detektivlari”: asardagi mayda detallarni aniqlash. “Bir daqiqa – bir fikr”: o‘quvchilar navbat bilan asar haqida bir fikr bildiradi. “Muallimga savol”: o‘quvchi muallimga beradigan savollarini o‘ylab topadi. Bu mashqlar o‘quvchilarni tahlil qilish jarayonida faol ishtirokini taminlaydi. Moybo‘yoq asarlarini tahlil qilish natijasida o‘quvchilarda quyidagi sifatlar shakllanadi: borliqni anglash va qadrlash, badiiy tafakkur, emotsional barqarorlik, mulohaza va tahlil qilish ko‘nikmasi, ijodkorlik va fantaziya, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi tuyg‘ular shakllanadi. Badiiy asarlarni tahlil qilish nafaqat san’atga, balki hayotdagi har qanday jarayonga estetik ko‘z bilan qaraydigan komil inson sifatida tarbiyalaydi.

Xulosa. Tasviriy san’at darslarida moybo‘yoqda ishlangan asarlarni tahlil qilish o‘quvchilarda nafosat tarbiyasini shakllantirishning samarali va ilmiy asoslangan pedagogik yo‘nalishlaridan biridir. Moybo‘yoq texnikasining rang-barangligi, chuqur koloritga ega ekanligi, faktura va materiallarning o‘ziga xosligi o‘quvchilar estetik idroki va badiiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Asarlarni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, mulohaza yuritish, hissiy-ta’sirchanlik va go‘zallikni qadrlash kabi qobiliyatlar shakllanadi. Ilmiy-metodik yondashuvlar, idrok, tahlil, baholash, ijod zanjiri, STEAM texnologiyasi, tadqiqot metodlari, interaktiv mashg‘ulotlar, o‘quv jarayonini zamonaviy va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu yondashuvlar orqali o‘quvchilar san’atni nafaqat ko‘rish, balki uni tushunish va his qilishga o‘rganadilar. Mashhur o‘zbek rassomlarining (O‘. Tansiqboyev, R. Ahmedov, Ch. Ahmarov, L. Abdullayev va boshqalar) mo‘ybo‘yoq asarlarini o‘rganish esa milliy badiiy merosni anglash, estetik qadriyatlarni mustahkamlash va ma’naviy yetuklikni shakllantiradi. Moybo‘yoq asarlarini tahlil qilish jarayoni o‘quvchilar shaxsiyatida estetik ehtiyoj, ijodkorlik, badiiy did, nafosat, milliy madaniyatga hurmat kabi muhim fazilatlarni tarbiyalaydi. Nafosat tarbiyasi — san’at orqali insonni ruhiy poklanish, go‘zallikni anglash va uni hayotda qo‘llashga undaydigan jarayondir. Shuning uchun tasviriy san’at darslarida

mo‘ybo‘yoq asarlarini puxta va tizimli tahlil qilish o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov S. "Tasviriy san'at asoslari." Toshkent. O'qituvchi. 2018.
2. To'xtaboyev H. Rang tasvir nazariyasi va amaliyoti." Toshkent. 2020.
3. Abdullayev A. "Estetik tarbiya asoslari." Toshkent. Sharq. 2015.
4. Xolbekov A. "Badiiy tafakkur va uning rivojlanishi." Buxoro. 2019.
5. Dewey J. "Art as Exsperience" New York. Penguin Books. 2005.
6. Read H. "Education through art" – London. Faber & Faber. 2016.
7. Ergashev B. "Rang tasvir psixologiyasi asoslari." Toshkent. Fan. 2018
8. Ziyodov T. "Estetik tarbiya nazariyasi." Toshkent. O'qituvchi. 2017.
9. Hasanov O. "San'at asarlarini tahlil qilishning didaktik asoslari." Ta'lim innovatsiyalari. 2019.
10. Abdullayev D. "STEAM texnologiyasi va tasviriy san'at." Toshkent. Innovatsiya nashriyoti. 2019.
11. Qodirova N. "Tasviriy san'atda interaktiv metodlar." Toshkent. Ziyonur. 2022
12. Rasulov K. "O'rol Tansiqboyev ijodi va o'zbek rang tasvir maktabi." Toshkent. San'at. 2015.
13. Xudoyberdiyev B. "Chingiz Ahmarov monumental san'ati." O'zbekiston san'atshunosligi. 2016